

elita^{uz}

Elektron Ilmiy
Jurnal

No.1 (2)
2024

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

| | |
|---|-------|
| <i>Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li</i> ELEKTRON TIJORATNING MOHIYATI, RIVOJLANISH TARIXI VA MUAMMOLAR | 3-11 |
| <i>Olimjonova Hulkar To'lqin qizi</i> SUG'URTA KOMPANIYALARINING MILLIY FOND BOZORIDAGI FAOL ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRUVCHI HUQUQIY MEXANIZMLAR | 12-20 |
| <i>Salimov Islombek Bobir o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATDA INTERNET-REKLAMA FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHDAGI MUAMMOLAR. ILMIY TAHLIL | 21-27 |
| <i>Xudoyorov Fayzullo Sayfulla o'g'li</i> MUSHARAKA VA MUDORABA: ISLOMIY MOLIYA VOSITALARI VA ULARNING O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDAGI ODDIY SHIRKAT SHARTNOMASIGA INTEGRATSIYASI | 28-37 |
| <i>G'ulomov Shohruh Islomjon o'g'li</i> METAVERSE PLATFORMALARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING GLOBAL STANDARTI VA XALQARO HAMKORLIK | 38-47 |
| <i>Razzaqova E'zoza Yusup qizi</i> RAQOBAT HUQUQIDA USTUN MAVQE TUSHUNCHASI | 48-56 |
| <i>Allanazarova Xavajon Axmedovna</i> DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR TUSHUNCHASI VA ULARNING YURIDIK SHAXSLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI | 57-64 |
| <i>Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li</i> FUQAROLIK VA IQTISODIY PROTSESSDA SHAFFOFLIK MUAMMOLARI | 65-77 |

SUG'URTA KOMPANIYALARINING MILLIY FOND BOZORIDAGI FAOL ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRUVCHI HUQUQIY MEXANIZMLAR

Olimjonova Hulkar To'lqin qizi | olimjonovahulkar@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy fond bozorida sug'urta kompaniyalari faoliyatining ahamiyati, sug'urta kompaniyalarining fond bozorida ishtirok etish maqsadlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning faoliyatini rag'batlantiruvchi huquqiy mexanizmlar: shu sohani tartibga soluvchi va rivojlantiruvchi qonun normalarini o'rganishga, ularni sharhlashga hamda tahliliy natija va xulosalar berishga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: fond bozori, sug'urta kompaniyalari, sug'urta faoliyati, rag'batlantiruvchi mexanizm, huquqiy mexanizmlar.

LEGAL MECHANISMS ENCOURAGING THE ACTIVE PARTICIPATION OF INSURANCE COMPANIES IN THE NATIONAL FUND MARKET

Olimjonova Hulkar To'lqin qizi

Master's degree student of Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the importance of the activity of insurance companies in the national stock market, the objectives of the participation of insurance companies in the stock market. Also, special attention is paid to the legal mechanisms that encourage their activity: the study of legal documents regulating and developing this field, their interpretation, analytical results and conclusions.

Keywords: stock market, insurance companies, insurance activity, incentive mechanism, legal mechanisms.

ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ, СТИМУЛИРУЮЩИЕ АКТИВНОЕ УЧАСТИЕ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ НА НАЦИОНАЛЬНОМ ФОНДОВОМ РЫНКЕ

Олимжонова Хулкар Тулкин кизи

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируется значение деятельности страховых компаний на национальном фондовом рынке, цели участия страховых компаний на фондовом рынке. Также особое внимание будет уделено изучению правовых механизмов, стимулирующих их деятельность: законодательных актов, регулирующих и развивающих данную сферу, их толкованию, а также предоставлению аналитических результатов и выводов.

Ключевые слова: фондовый рынок, страховые компании, страховая деятельность, механизм стимулирования, правовые механизмы.

Kirish. Hozirgi kunda yurtimizda moliya bozorini, mamlakat iqtisodiy yo'nalishlarini rivojlantirishda turli xil isohotlar amalga oshirilmoqda. Shu asnoda fond bozorini rivojlantirishga unga yirik investitsiyalar jalb qilishga ham e'tibor kuchlidir. Avvalo, fond bozori o'zi nima? Fond bozorida amalga oshiriladigan faoliyatlar haqida to'xtalib o'tamiz. Fond bozoriga qisqacha ta'rif beradigan bo'lsak, bu qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi amalga oshiriladigan bozor hisoblanadi. Fond bozori vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini qimmatli qog'ozlar joylashtirish va qayta taqsimlashga yo'naltirish uchun xizmat qiladi.

Har bir moliyaviy bozorning o'z ishtirokchi hamda investorlari bo'lgani kabi fond bozorining ham o'z investorlari hamda ishtirokchilari mavjud. O'zbekiston fond bozorining institutsional (yirik) investorlaridan biri bu sug'urta kompaniyalari hisoblanadi. Fond bozorida sug'urta kompaniyalarining ishtiroki juda muhim hisoblanadi. Negaki bir necha manbalarda sug'urta insoniyat tarixining tadrijiy rivojlanishi bosqichlarida moliyaviy munosabatlarning

ajralmas tarkibiy qismi sifatida iqtisodiyotga ta'sir etuvchi muhim omillardan bo'lib kelganligi keltirilgan.

Material va metodlar. Ushbu maqolada sug'urta kompaniyalarining fond bozorida tutgan o'rni, ahamiyati hamda ularning fond bozoridagi faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy mexanizm tasnifi haqida ma'lumot berilgan. Shu bilan birga sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi ishtirokini tartibga soluvchi, rag'batlantiruvchi huquqiy qonun hujjatlarini o'rganish davomida unga sharhlar berib o'tilib, ularning qay darajada sohani qamrab olganligi ko'rib chiqilgan va berilgan tushunchalarning huquqiy mazmun mohiyati yoritib berilgan. Amaliyotda sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi ishtirokining sust ekanligi sabablari, bu borada milliy qonunchilikda duch kelinayotgan muammolar va ularni bartaraf etishda huquqiy mexanizmlarni samarali qo'llash usullari ilmiy-huquqiy jihatdan o'rganilgan.

Mazkur maqola doktrinal tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Unda sohaga oid ilmiy tushunchalar, qonun hujjatlari tahlili, xulosa va fikrlar o'rganilgan. Maqola mavzuning hozirgi kundagi dolzarbligini yoritishdan boshlangan va mavzuga oid tushunchalarni, qonun hujjatlarini tahlil qilish bilan davom ettirilgan hamda mavjud huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, muammolarni hal qilish yo'llarini ko'rsatishga oid xulosalarga kelish bilan yakunlangan.

Muhokama va natijalar. Barchamizga ma'lumki, zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanish bosqichida sug'urtaning o'rni shubhasiz. Sug'urta kompaniyalari kutilmagan holatlar tufayli yetkazilgan zararni qoplash uchun moliyaviy kafillik qiladi.

Bugungi kunda sug'urta jadal rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, moliya bozorining salmoqli qismini qamrab oladi, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozorida ham sug'urta kompaniyalari o'z o'rniga egadir. Qimmatli qog'ozlar bozorida katta tavakkalchilik mavjudligi sababli sug'urtaga ehtiyojning vujudga kelishi tabiiy albatta, chunki qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatda ko'pincha sug'urta faoliyatigina zararni qoplash imkonini berishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozorida sug'urtani iqtisodiy foyda, himoya, ya'ni risklarni boshqarishning haqiqiy imkoniyati deb hisoblashimiz ham mumkin.

Sug'urta kompaniyalari fond bozorida nafaqat qimmatli qog'ozlarni sug'urtalash faoliyati bilan balki to'g'ridan to'g'ri institutsional investor vazifasini

ham bajaradi. Sug'urta kompaniyalarining investitsiya qilish imkoniyati sug'urtaning yana bir o'ziga xos xususiyati mavjudligini anglatadi. Sug'urta faoliyatiga xos bo'lgan zaxiralarda va o'zlarida to'plangan katta hajmdagi vaqtincha bo'sh mablag'lar kompaniyaning investitsiya va moliyaviy faoliyatini belgilaydi. Sug'urta xizmatlarini ko'rsatish jarayonida to'plangan mablag'lar biznesning investitsion tarkibiy qismi tufayli milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun safarbar qilinadi. Sug'urta kompaniyalari tomonidan katta moliyaviy resurslarni safarbar etish va keyinchalik investitsiyalash sug'urta sohasini milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim moliyaviy manbasiga aylantiradi. Moliyaviy bozorlarda faol ishtirok etish va investitsiya qilingan mablag'lar hajmi sug'urta kompaniyalarini eng muhim institutsional investorlar sifatida aniqlash imkonini beradi. Sug'urta orqali jalb qilingan mablag'lar butun mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu tufayli sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi ishtirokini rag'batlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Keling endi rag'batlantiruvchi huquqiy mexanizm tushunchasiga biroz to'xtalib o'tsak. Mexanizm - grekchada «mechane» – qurol, qurilma degan ma'noni anglatib, u biron-bir harakatni bajarish uchun zarur bo'lgan uzviy bog'langan qismlar tizimidir.[1] Rag'batlantiruvchi huquqiy mexanizmlarni bo'lsa ma'lum bir ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihattan tartibga solinishini, ushbu huquqiy munosabatlarni rivojlanishini ta'minlovchi qismlar tizimi deyishimiz mumkin. Bunda huquqiy munosabatlar yig'indisi emas, balki aynan qismlar tizimi sifatida qarashlik to'g'ri hisoblanadi. Rag'batlantiruvchi huquqiy mexanizmlarning asosiy vazifasi bu qaysi soha yoki ijtimoiy munosabat tartibga solinayotgan bo'lsa shu soha faoliyatini huquqiy jihattan soddalashtirish, qulay qilish yoki ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun ma'lum bir doirada imkon yoki imtiyoz berishdir.

Sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarimiz ham sanoqli bo'lib, ularning eng asosiylaridan biri bu "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonundir. Qonun umumiy sug'urta faoliyati bilan bog'liq barcha munosabatlarni tartibga solishda katta ahamiyat kasb etadi. Sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi faoliyati haqida qonunning 14-moddasida shunday deyiladi:

"Sug'urtalovchilar qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirishga haqli bo'lib, bunda mazkur

faoliyat turini amalga oshirish uchun sug'urtalovchining litsenziya olishi talab qilinmaydi."

Yuqoridagi bu qoidalar sug'urta kompaniyalarining fond bozorida erkin faoliyatni amalga oshirishini kafolatlar ekan. Undan tashqari qonunning ushbu qismi sug'urta kompaniyalarini fond bozoriga ko'proq jalb qilish uchun imkoniyat yaratadi.

Shu bilan birga "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonun ham 2015-yil 3-iyunda yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu qonunning 58-moddasida ham qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'z tavakkalchiliklarini sug'urta qilish kabi huquqlarga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Qonunda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining tavakkalchiliklarini sug'urtalashlari mumkinligini belgilash ham sug'urta kompaniyalarini fond bozorida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi faol ishtirokini rag'batlantiruvchi asosiy huquqiy mexanizmlardan yana biri sifatida Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi, Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2008-yil 7-noyabrda 306-V-sonli [qarori](#) bilan tasdiqlangan "Qimmatli qog'ozlar bozoridagi institutsional investorlar faoliyatining professional standartlari to'g'risida"gi **Nizomni keltirishimiz mumkin.**

Ushbu nizomni fond bozorida institutsional investorlarning huquq va majburiyat, vazifa va maqsadlarini belgilab beruvchi asosiy qo'llanma desak ham bo'ladi hamda bu huquqiy hujjatning alohida qabul qilinganligi ham sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi faoliyatini amalga oshirishni qulaylashtiradi.

Shu yilning sentabr oyida yurtboshimiz tomonidan kapital bozorini yanada rivojlantirish, uning infratuzilmasini takomillashtirish, investorlarni kapital bozoriga jalb etishni rag'batlantirish, chet el investorlari uchun mahalliy fond bozorida qatnashish tartibini soddalashtirish va investorlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida"gi qaror imzolandi.

Unga ko'ra Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga manfaatdor idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda:

sug'urta bozorini yanada rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini;

qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi yuklatilgan.

Qarorga berilgan 4-ilova - 2023-2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ning amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ro'yxatining 18-qismida 2024-yil iyun oyiga qadar davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan tijorat banklari va sug'urta tashkilotlari tomonidan uyushgan savdolardagi qimmatli qog'ozlarga (davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno) kiritiladigan investitsiya hajmini ular tomonidan davlat qimmatli qog'ozlariga qilingan jami investitsiyalar hamda depozit va/yoki depozit sertifikatlariga qo'yilgan mablag'larga nisbatan 3 (uch) foizga yetkazish belgilangan.

Yuqorida keltirilgan qonun hujjatlarini sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi faoliyatini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlar deyishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari tahlili. Biz sanab o'tgan barcha qonun hujjatlari sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi faol ishtirokini to'laqonli rag'batlantirish xususiyatiga ega deyolmaymiz. To'g'ri, ushbu huquqiy mexanizmlar sug'urta kompaniyalarining fond bozorida ishtirok etishi uchun zamin yaratishi, ularni institutsional investorlar qatoriga kiritishi, bu borada alohida qonun normasining yaratilishi ularning faoliyatini ma'lum bir darajada qulaylashtirishi mumkin, biroq hozirgi amaliyot bilan solishtiradigan bo'lsak, sug'urta kompaniyalari bizdagi fond bozorida institutsional investor sifatida deyarli ishtirok etmaydi. Bunga sabab sifatida quyidagi omillarni aytishimiz mumkin:

Birinchidan, statistika ma'lumotlariga asosan O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari soni aholi soniga nisbatan juda kam va sanoqli. To'g'ri, sug'urta kompaniyalari institutsional investor sifatida fond bozorida qatnashishi uchun undagi zaxira yoki unga yo'naltirish uchun pul mablag'lari yetarli bo'lishi mumkin, lekin ularning asosiy faoliyati - sug'urtalash ishlarining hajmi juda ko'p. Biz ularning sonini ko'paytirishimiz orqali fond bozoriga ko'proq jalb qilishimiz mumkin deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, bilmizki hozirgi kunda O'zbekiston sharoitida qimmatli qog'ozlar bozori juda sekin tempda rivojlanmoqda, chunki aholining fond bozoriga bo'lgan ishonchi kam. Biz sug'urta kompaniyalarini jalb qilish orqali

aholini fond bozoriga bo'lgan ishonch ko'rsatkichini ma'lum bir darajada oshirishga erishishimiz mumkin.

Uchinchidan, aholi qatlamining deyarli 30-50 foizi (%) sug'urta faoliyati-yu, qimmatli qog'ozlar bozori, uning aylanmasi kabi tushuchalar haqida ma'lumotga ega emas.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytmoqchimizki, biz ham fond bozorini ham unda sug'urta kompaniyalarining faoliyatini rivojlantirmoqchimizmi, demak birinchi navbatda ularning faoliyatlarini kafolatlovchi, rag'batlantiruvchi qonunchilikni shakllantirishimiz lozim. Ularga qo'yilgan talablarni soddalashtirishimiz, ular fond bozorida erkin faoliyatni amalga oshirishlari uchun imkoniyatlar yaratib berishimiz, ularga faoliyati davomida qandaydir imtiyozlar berilishi lozim. O'ylaymizki, biz faqatgina shu yo'llar orqali sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi faol ishtirokini ta'minlashga muvaffaq bo'lamiz.

Undan tashqari O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozori, fond bozorini va undagi sug'urta kompaniyalarining ishtirokini isloh qilish va jadal rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash va qayta ko'rib chiqish soha faoliyati uchun samarali bo'lib, endi ushbu maqsadga erishishdagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha o'zimizning bir nechta takliflarimizni berib o'tmoqchimiz:

Birinchidan, sug'urta xizmatidan foydalanayotgan va foydalanishi mumkin bo'lgan aholining aksariyat qismi, sug'urta haqida to'liq ma'lumotga ega emas. Holbuki, bu sug'urta turiga talabning ortishi sug'urtalanuvchi va sug'urtalanuvchiga moliyaviy holatini yaxshilashda o'zining salmoqli xissasini qo'shadi.[2] Shu tufayli sug'urta xizmati ko'rsatish faoliyatining mamlakat hayotida va har bir fuqaro hayotida muhim rol o'ynashini hisobga olgan holda, umumta'lim maktablarida sug'urta to'g'risida, uning iqtisodiy ahamiyati, huquqiy asoslari haqida umumiy bilimlar berib borish, maxsus o'quv yurtlarida esa, sug'urtaga oid o'quv darslari joriy etilishi lozim.

Ikkinchidan, qimmatli qog'ozlar bozoridagi sug'urta faoliyatida marketing xizmatidan samarali foydalanish xususan, eng yaxshi reklamani yo'lga qo'yish, servis xizmatlaridan foydalanish, mijozlar bilan ishlashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni eng qulay va samarali usullarini yo'lga qo'yish, shu bilan bir qatorda fond bozorida sug'urta madaniyatini oshirish maqsadida konferensiyalar o'tkazish, mijozlar qiziqishini oshirishga xizmat qiluvchi strategik rejalar tuzish va joriy qilish kerak.

Uchinchidan, sug'urta hamda fond bozorining rivojlanishi, sug'urtalovchi kompaniyalarning jadal faoliyatiga ko'p jihatdan bog'liq va ular sonining ko'p bo'lishi, sug'urta bozorida raqobatni kuchaytirishga, ayni paytda sug'urta xizmati ko'rsatish turlarining ko'payishiga va sifat jihatdan yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shu sababdan, sug'urta bilan shug'ullanish uchun huquqiy imkoniyatlarni kengaytirish, sug'urta tashkilotlari ta'sis etilishi tartibini soddalashtirish lozim. Bozor va raqobatni o'zi ular orasidan layoqatlilarini ajratib olishga, qolganlarini esa sug'urta bozoridan chiqib ketishiga majbur qilishga qodir.

Mamlakatimiz sug'urta bozorini rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazishning eng muhim va asosiy omillaridan biri bu, O'zbekistonda xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda o'zaro sug'urtani joriy etishdir va bunda davlatning tashabbuskorligidan foydalanish sug'urta sohasidagi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Mamlakatda o'zaro sug'urtani joriy etish uchun avvalambor uning huquqiy ta'minotini yo'lga qo'yish, o'zaro sug'urtani rivojlantirish maqsadida ushbu sohaga taalluqli imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish zarur deb hisoblaymiz. Shunday holatda o'zaro sug'urta, sug'urtaning alohida shakli sifatida tijorat sug'urtasi bilan parallel ravishda rivojlanadi va ko'p sonli potensial sug'urtalanuvchilarni sug'urtaga jalb etish barobarida fuqarolarning moddiy farovonligini oshishida, ularning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq tavakkalchiliklarini kafolatlashda, korxonalar va tashkilotlarning barqaror faoliyat ko'rsatishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.[2] Ushbu ko'rsatilgan chora-tadbirlarni amalda joriy etish fond va sug'urta bozorlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi va mamlakat iqtisodiyotida qimmatli qog'ozlar hamda sug'urta bozorini o'zni va rolini kuchaytiradi deb aytishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. www.oefen.uz
2. Sharapova M. A. Iqtisodiy islohotlar sharoitida O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini rivojlantirish yo'llari //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 1177-1183.
3. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida» gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 23-noyabrda qabul qilingan.
4. O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2015-yil 3-iyunda qabul qilingan.
5. “Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrdagi qarori.
6. Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi, Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2008-yil 7-noyabrdagi 306-V-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Qimmatli qog'ozlar bozoridagi institutsional investorlar faoliyatining professional standartlari to'g'risida”gi **nizomi**.
7. Mladenka Balaban. Role of insurance company as institucional investors <https://core.ac.uk/download/pdf/33812139.pdf>
8. The importance of insurance companies for financial stability https://www.ecb.europa.eu/pub/pdf/fsr/art/ecb.fsrart200912en_05.pdf

Internet saytlar:

9. <http://www.lex.uz>
10. <http://www.google.com>
11. <http://www.stat.uz>
12. <http://www.mf.uz>
13. <http://www.oefen.uz>